



The role of auxiliary morphemes in Japanese speech

Pulotoy NAJMIYEVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2024

Received in revised form

10 October 2024

Accepted 25 October 2024

Available online

25 November 2024

Keywords:

speech level,
Japanese history,
lexical construction,
grammatical construction,
syntactic meaning,
contextual situation.

ABSTRACT

This article examines the influence of Japanese history and development on the education system and lexical and grammatical structure of the Japanese language, the differences between the Kokugogaku and Nihongogaku systems, auxiliary morphemes and the syntactic meaning of case markers in various contextual situations. The functions of case markers are analyzed and the functions of each suffix are described in detail.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss5/S-pp349-356>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yapon nutq sathida ko'makchi morfemalar roli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Nutq sathi,
Yaponiya tarixi,
leksik qurilish,
grammatik qurilish,
sintaktik ma'no,
kontekstual vaziyat.

Ushbu maqolada Yaponiya tarixi va rivojlanish bosqichining Yapon tili ta'lim tizimiga hamda yapon tilining leksik va grammatik qurilishiga ta'siri, Kokugogaku va Nihongogaku tizimidagi tafovutlar, tilning kichik birligi hisoblanmish ko'makchi morfemalar va kelishik kategoriyasidagi qo'shimchalarning turli kontekstual vaziyatlardagi sintaktik ma'no ifodalanishi ko'rib chiqildi. Kelishik qo'shimchalarining vazifalari tahlili qilinib, har bir kelishik qo'shimchasi funksiyalari tavsiflandi.

¹ PhD student, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: purami0808@gmail.com

Роль вспомогательных морфем в японской речи

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

речевой уровень,
история Японии,
лексическая конструкция,
грамматическая
конструкция,
синтаксическое значение,
контекстная ситуация.

В данной статье рассматривается влияние истории и развития Японии на систему обучения и лексико-грамматический строй японского языка, различия между системами Кокугогаку и Нихонгогаку, вспомогательные морфемы и синтаксическое значение падежных показателей в различных контекстных ситуациях. Анализируются функции падежных показателей и подробно описываются функции каждого суффикса.

KIRISH

Til insoniyat tafakkuridagi fikrlarni bayon qila olish uchun xizmat qiladigan asosiy vosita hisoblanadi. Albatta ushbu jarayonda madaniy-, ma'naviy, psixologik, tabiiy-biologik omillar ishtirokining o'rni ham salmoqli. Aynan til hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrimizda ma'lumotlar manbasining keng tarqalishida muhim o'rin kasb etmoqda. Tilning kelajakda yana qancha umr ko'rishi mumkinligi shu tilda mavjud bo'lgan ma'lumotlar hajmi hamda ularning sifati bilan ham bog'liq. O'zbek tilida yozilgan va asrlar davomida o'z qiymatini yo'qotmagan asarlar hozirgi davrda ham kitobxonlar va ilm ahli tomonidan mutolaa qilib kelinmoqda. O'zbek tilining milliy korpusi yaratilishi ham aynan ushbu tildagi insoniyat uchun har qanday davrda xizmat qila oladigan manbalarning kelajakda keng omma tomonidan mutolaa qilinishini ta'minlash bilan ham bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Kokugogaku ta'lim tizimi va Nihongogaku ta'lim tizimi Yaponiya hamda yapon xalqi milliy tilining kelajakda dunyo miqyosida o'z o'rnini yo'qotmasligi uchun ishlab chiqilgan tizim hisoblanadi. Albatta, yapon tilining milliy korpusi ham ushbu maqsadda ishlab chiqilgan va hozirda keng jabhalardagi foydalanuvchilarga taqdim etilgan. Yaponiya yozuv tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak unda hozirgi yapon yozuvi asosini Xitoy iyerogliflari tashkil qilganligini bilishimiz mumkin. Yapon tili tarkibiga xitoy iyerogliflari bilan birga kirib kelgan leksik birliklar ham bo'lgan. Bu kabi leksik birliklar yapon tilida kango deb yuritiladi. Kango- iyerogliflardan tashkil topgan leksik birlik bo'lib bu kabi leksik birliklar tarkibiy qismlari faqatgina iyerogliflardan tashkil topadi. Masalan: 清潔(seiketsu)-toza so'zi **kango** hisoblanib xuddi shu ma'noni beradigan きれい(kirei)-toza so'zi **wago** hisoblanadi. Kango va Wago leksik birliklariga ta'rif beradigan bo'lsak, Wago leksik birliklariga qadimiy yapon tiliga mansub so'zlar (Yamato so'zlari deb ham yuritiladi) kirishini, Kango leksik birliklariga esa Xitoy iyerogliflaridangina tashkil topgan so'zlar kirishini ko'rishimiz mumkin. Kokugo so'zining o'zi qismlarga bo'lib tahlil qilinganda koku-mamlakat, go-til degan ma'nolar beruvchi iyeroglif kompozitsiyasidan tashkil topganligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu iyeroglifik kompleks kango so'zlari turkumiga kirishini ikkita iyeroglifdan tarkib topganligidan anglashimiz mumkin. Bu esa Kokugo so'zining o'zi ham qadimiy yapon tiliga mansub so'z emasligini bildiradi. Kokugo so'zining o'zi kango so'zlari jumlasiga kirishiga qaramay, butun Yaponiya ahli nazdida kokugogaku ta'lim tizimi Yaponiya milliy tilini, tarixini, rivojlanish bosqichlarini o'z ichiga olgan tizim hisoblanadi.

Har bir tilning rivojlanish bosqichida diniy ta'limotlar va diniy qonuniyatlar aks etgan diniy kitoblarning o'rni beqiyos bo'lgan. Yapon tilida yozuv paydo bo'lganidan keyin Konfutsiy va Budda ta'limotlari ta'siri ham sezilarli darajada Yaponiya hududida iz qoldirgan. Qadimdan Yaponiyada mahalliy din Sinto dini bo'lganligiga qaramasdan yozuvning paydo bo'lishi bilan birga Konfutsiy va Buddizm ta'limotlari ta'siri ham sezilarli darajada rivoj topgan. Hozirgi davrga qadar saqlanib qolgan Ikebana san'ati va Sadou marosimlarining o'tkazib kelinayotgani bunga dalil bo'la oladi. Chunki bu kabi an'analar buddizm falsafasiga tayanilgan holda dunyoga kelgan.

Kokugaku tizimi Edo davrining o'rtalarida Yaponiya hududida shakllana boshladi. Xitoyshunoslik va konfutsiyshunoslikdan tashqari Yapon madaniyati va tarixi, Sinto (mahalliy yapon dini) dini an'analariga yo'g'rilgan she'riyat va adabiyotning beqiyos qirralari tadqiqiga diqqat qaratildi. Meiji davri nafaqat siyosiy o'zgarishlar balkim ilmiy-ta'limiy sohalarda ham yangiliklar davri sifatida qayd etilgan. Kokugaku tizimi keng shakllangan davr Meiji davri bo'lib Kogaku (古学)、Kagaku (歌学) Wagaku (和学) kabi yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borila boshlandi. Keichuu tomonidan birinchi marotaba "Man'yoshuu" asari tahlili qilingan bo'lib aynan shu tahlilda yapon tiligagina xos bo'lgan jihatlar birinchilardan bo'lib ochib berilgan. Tadqiqotimiz obyekti hisoblanmish yapon tilidagi qo'shimchalar va yordamchi so'zlar haqidagi tahlillar esa Noriakira tomonidan qilingan. Noriakira tomonidan qilingan tahlillar kokugogaku tizimi rivojlangan davrda olib borilgan bo'lsa-da uning metodologiyasi hozirgi yapon tilini o'rgatishda ham keng qo'llanib kelinmoqda. Kokugogaku tizimi Nihongogaku tizimi asosi ekanligi yuqoridagi tarixiy faktlarda ko'rinadi. Kokugogaku tizimining nomi Nihongogaku tizimiga o'zgarishining asosiy sababi Yaponiya va faqat yaponlarga xos tushunchalarni butun dunyoga boshqa mamlakatlar ta'siridan xoli holatda yetkazish hisoblangan. Kokugo va Nihongo ta'lim tizimidagi grammatik strukturada tafovutlar mavjud. Birinchi navbatda so'z turkumlari Kokugo ta'lim tizimida 10 ta deb tavsiflansa, Nihongo ta'lim tizimida 7 ta deb belgilangan. Fe'l Kokugo ta'lim tizimida 5 turga bo'lib o'rganilsa, Nihongo ta'lim tizimida ular 3 turga bo'lib o'rganiladi. Qo'shimchalari ham o'z navbatida quyidagicha tavsiflanadi.

Muhokama va natijalar

Yapon tilidagi kokugo va nihongo ta'lim tizimida o'rganiladigan qo'shimchalarning turi va soni quyidagi farqlarga ega.

	Nihongo ta'lim tizimi	Kokugo ta'lim tizimi
1.	格助詞(kakujoshi) Kelishik qo'shimchalari	格助詞(kakujoshi) Kelishik qo'shimchalari
2.	とりたて助詞 (toritatejoshi)	副助詞(fukujoshi)
3.	接続助詞 (setsuzokujoshi)	接続助詞 (setsuzokujoshi)
4.	終助詞 (shuujoshi)	終助詞(shuujoshi)
5.	間投助詞 (kantoujoshi)	
6.	並立助詞 (heiritsujoshi)	
7.	複合助詞 (fukugoujoshi)	

O'zbek tili bilan chog'ishtirilgan holda qo'shimchalar (ko'makchi morfemalar) vazifalari va ularning qiyosi uchun quyida o'zbek tilidagi qo'shimchalar tasnifini keltiramiz. *Mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shilib, unga yangi qo'shimcha ma'no*

yuklaydigan, shu bilan birga so'zlarni bir biriga bog'lashga xizmat qiladigan qismga qo'shimcha deb aytiladi.

Qo'shimchalar tasnifi quyida yapon tilida berildi.

助詞は日本語の品詞の一つ。一般に、付属語(辞)のうち活用しないものをさす。それ自身単独で発話されることはほとんどなく、その前の単語に続けて発話される単語である。(日本大百科全書・ニッポニカ)

[Joshi wa nihongo no hinshi no hitotsu. Ippan ni, fuzokugo (ji) no uchi katsuyou shinai mono o sasu. Sore jishin tandoku de hatsuwa sa reru koto wa hotondo naku, sono zen no tango ni tsudzukete hatsuwa sa reru tango de aru.]

(Yapon tilidagi qo'shimchalar so'z turkumlaridan biri hisoblanadi. Umuman olib qaralganda u o'zgaras yordamchi so'zlar tarkibiga kiritilib, tuslanish xususiyatiga ega emas. O'zi alohida nutqda qo'llanilmaydi, balki o'zidan oldin keladigan so'zga ergashib kelish vazifasiga ega.)

O'zbek tilidagi qo'shimchalar:

① So'z yasovchi qo'shimchalar;

② Shakl yasovchi qo'shimchalar. Shakl yasovchi qo'shimchalar o'z navbatida **lug'aviy shakl yasovchi** va **sintaktik shakl yasovchi** qo'shimchalarga bo'linadi.

Yapon tilidagi (nihongogaku tizimida) qo'shimchalar esa 7 turga bo'lib o'rganiladi.

① 格助詞(kakujoshi)-kelishik qo'shimchalari, ② とりたて助詞 (toritatejoshi)-maxsus qo'shimchalar, ③ 接続助詞 (setsuzokujoshi)-bog'lovchilar, ④ 終助詞 (shuujoshi) – gap yakunlovchi qo'shimchalar, ⑤ 間投助詞 (kantoujoshi) so'roq-undov qo'shimchalari, ⑥ 並立助詞 (heiritsujoshi) parallel munosabat ko'rsatuvchi qo'shimchalar, ⑦ 複合助詞 (fukugoujoshi) – murakkab qo'shimchalar.

Ilmiy yondashuvimizda kelishik qo'shimchalarining tarjimadagi o'rni haqida bo'lganligi sabab aynan kelishiklar vazifalarini tavsiflab o'tamiz. O'zbek tilida 6 ta kelishik mavjud bo'lib har bir kelishik o'z ko'rsatkichiga ega.

#	kelishik nomi	kelishik ko'rsatkichi
1.	Bosh kelishik	-
2.	Qaratqich kelishigi	ning
3.	Tushum kelishigi	ni
4.	Jo'nalish kelishigi	ga
5.	O'rin payt kelishigi	da
6.	Chiqish kelishigi	dan

Yapon tilidagi kelishiklar quyidagilar: 「が格」(ga kelishigi) 「を格」(wo kelishigi) 「に格」(ni kelishigi) 「へ格」(e kelishigi) 「と格」(to kelishigi) 「から格」(kara kelishigi) 「より格」(yori kelishigi) 「で格」(de kelishigi) 「まで格」(made kelishigi)

Har bir kelishik qo'shimchasi ishtirok etgan misollar bilan yapon tilidagi kelishiklar xususiyatlarini tahlil qilib ko'raylik.

• 「が格」 - "ga" kelishik ko'rsatkichi gapda ega yoki to'ldiruvchi vazifasidagi so'zni kesim bilan bog'lashdagi vazifasi.

学生が来た。[Gakusei ga kita] Talaba keldi

コーヒが飲みたい。[Kouhiga nomitai] Kofeni ichmoqchiman.

・「を格」wo- kelishik ko'rsatkichi gapda **to'diruvchi**, **o'rin holi** vazifasidagi so'zlarni kesim bilan munosabatini ko'rsatishda hamda harakat boshlanish nuqtasini ko'rsatishdagi vazifasi.

英語を学んだ。[Eigo wo mananda.] Ingliz tilini o'rgandi.

橋を通った。[Hashi wo tootta.] Ko'priktan o'tdi. (Ko'prikn kesib o'tdi)

家を出た。[Ie wo deta.] Uydan chiqdi.

・「に格」ni-kelishik ko'rsatkichi gaplarda 12 xildan ziyod vazifada, so'zlarning kesim bilan munosabatni ko'rsatib bera oladi.

① [着点] – harakatning tugash va yangi harakatning boshlanish nuqtasini ko'rsatish vazifasida ishlatiladi.

日本に来た。[Nihon ni kita.] Yaponiyaga keldim.

② [相手] – gapdagi harakatning kimga yoki nimaga qaratilganligini ko'rsatishdagi vazifasi.

先生にわたした。[Sensei ni watashita.] Ustozga berdim.

③ [場所] – gapdagi vaziyatning joyini ko'rsatishdagi vazifasi.

教室に時計がある。[Kyoushitsu ni tokei ga aru.] Sinfda soat bor.

④ [起因・根拠] – gapdagi kesim tasvirlayotgan vaziyatning sababini ko'rsatishda ishlatiladigan vazifasi.

風に木の葉がゆれた。[Kaze ni ki no ha ga yureta.] Shamolda daraxt barglari shitirladi.

⑤ [主体] – gapdagi kesim bajarayotgan harakatning egasini aniq ko'rsatishda ishlatiladigan vazifasi.

私にはこんな問題は難しい。[Watashi ni ha konna mondai wa muzukashii.] Menga bunday savollar qiyinlik qiladi.

⑥ [対象] – gapdagi kesim ifodalaydigan harakatning to'ldiruvchi obyektini ko'rsatib berish vazifasi.

意見に反対した。[Iken ni hantai shita.] Fikrga qarshi bordim.

⑦ [手段] – gapdagi kesim ifodalaydigan harakatni nima yordamida ro'y berayotganini anglatish vazifasi.

草におおわれている。[Kusa ni oowareteiru.] O't bilan qoplangan.

⑧ [時] – gapda kesim ifodalaydigan harakat vaqtini ko'rsatishdagi vazifasi.

5時に始まります。[Go ji ni hajimarimasu.] Soat 5 da boshlanadi.

⑨ [領域] – gapdagi kesim ifodalanishi uchun shart bo'lgan vaziyatni ko'rsatishdagi vazifasi.

こどもには、考えられるものじゃないと思う。[Kodomo ni wa kangaerareru mono ja nai to omou.] Bolalar o'ylab topa oladigan narsa emas bu deb o'ylayman.

⑩ [目的] – gapdagi kesim ifodalayotgan harakatning maqsadini ko'rsatishdagi vazifasi.

本を買いに行く。[Hon wo kaini iku.] Kitob sotib olishga boraman.

11 [役割] – gapdagi kesim ifodalayotgan vaziyatni ega hamda to'ldiruvchi bilan ko'rsatishdagi vazifasi.

お礼に本を買ってあげた。[O rei ni hon wo katte ageta.] Minnatdorchilik tariqasida kitob sotib olib berdim.

12 [割合] – gapdagi vaqt yoki miqdorning nisbatini ko'rsatishdagi vazifasi.

10人に一人選ばれる。[Juu nin ni hitori erabareru.] 10 kishidan bir kishi tanlanadi.

• 「へ格」 – e kelishik ko'rsatkichi kesim ifodalayotgan harakatning yo'nalishini ko'rsatish vazifasini bajaradi.

アメリカへ行く。[Amerika ni iku] Amerikaga boraman.

• 「まで格」 - made kelishik ko'rsatkichi miqdor yoki hajmning chegarasini ko'rsatish vazifasini bajaradi.

6時まで働いた。[Roku ji made hataraita] Soat 6 gacha ishladim.

• 「と格」 - to kelishik ko'rsatkichi gapdagi kesim ifodalayotgan harakatni birdan ortiq ega tomonidan bajarilayotganinni ifodalash vazifasini bajaradi.①

Gapdahi kesimning o'zgarish vaziyati tugagani va natijasini ko'rsatish vazifasi. ②

Gapdagi ob'yektni nomlash, chaqirish kabi ma'nolarni ko'rsatish vazifasi.③

① 姉と話した。[Ane to hanashita.] Opam bilan gaplashdim.

② 学生となった。[Gakusei to natta.] Talaba bo'ldim.

③ 松本と言います。[Matsumoto to iimasu.] Matsumoto bo'laman.

• 「から格」 - kara kelishik ko'rsatkichi gapda so'zlarning kesim bilan munosabatini 5 xil vaziyatlarda ko'rsatib beradi.

①[起点] – gapdagi kesim tasvirlayotgan harakatning boshlanish nuqtasini ko'rsatishdagi vazifasi.

東京からきた。[Toukyou kara kita] Tokyodan keldim.

②[主体] – kesim ifodalayotgan harakatning egasini ko'rsatib berishdagi vazifasi.

私から挨拶を伝えて。[Watashi kara aisatsu wo tsutaete] Mendan salom yetkaz.

③[原因・根拠] – kesim ifodalayotgan harakatdan kelib chiqadigan vaziyatni va sababni ko'rsatishdagi vazifasi

歩き方から父だと思った。[Arukikata kara chichi da to omotta] Yurishidan otammi deb o'yladim.

④[経過域] – kesim ifodalayotgan harakatning kelib chiqish joyi va vaqtini ko'rsatishdagi vazifasi.

猫は窓から入ってきた。[Nekowa mado kara haitte kita] Mushuk derazadan kirdi.

⑤[手段] – kesim ifodalayotgan harakat vositasi yoki uslubini ko'rsatishdagi vazifasi.

家は木から成り立っている。[Iye wa ki kara naritatteiru.] Uy yog'ochdan qurilgan.

・[より格] – yori kelishik ko'rsatkichi gapda kesim ifodalayotgan harakatning boshlanish vaqti va joyini ko'rsatib berishda ishlatiladi.

19日より休ませていただきます。[Juu ku nichi yori yasumasete itadakimasu] 19 sanadan dam olishimga ruxsat bering.

お客さまは東京より 来ていただきました。[Okyakusama wa Toukyou kara kite itadakimashita.] Mijozimiz Tokyodan tashrif buyurdilar

・[で格] – de kelishik ko'rsatkichi gapda 8 xildan ortiq vaziyatda kesim bilan boshqa so'zlarning munosabatini ko'rsatib beradi.

① [場所] – gapdagi kesim ifodalayotgan harakatning joyini ko'rsatishda ishlatiladigan vazifasi.

日本で学んだ。[Nihon de mananda] Yaponiyada o'rgandim.

② [手段] – gapdagi kesim ifodalayotgan harakatda ishtirok etadigan vosita yoki uslubni ko'rsatishda ishlatiladigan vazifasi.

バスで行った。[Basu de itta] Avtobusda bordi.

③ [原因・根拠] – gapdagi kesim tasvirlayotgan harakatning kelib chiqish sababini ko'rsatishda ishlatiladigan vazifasi.

病気で学校を休んだ。[Byouki de yasunda] Bemorligim sabab maktabga bormadim.

④ [主体] – gapdagi kesim bajarayotgan harakatning egasini aniq ko'rsatishda ishlatiladigan vazifasi.

みんなで決めた。[Minna de kimeta] Hammamiz hal qildik.

⑤ [限界] – gapdagi kesim ifodalayotgan harakat yoki vaqtning chegarasini bildirishni ko'rsatishdagi vazifasi.

5分で終わる。[Go fun de owaru.] 5 daqiqada tugaydi.

⑥ [領域] – gapdagi kesim ifodalayotgan harakat yuzaga kelishi uchun kerak bo'ladigan maydonni ko'rsatishdagi vazifasi.

世界で一番有名な所だ。[Sekai de ichiban yuumei na tokoro da.] Dunyodagi eng mashhur joy.

一年で一番寒い日だった。[Ichi nen de ichi ban samui hi datta.] Yildagi eng sovuq kun edi.

⑦ [目的] – gapdagi kesim ifodalayotgan harakatning maqsadini ko'rsatishdagi vazifasi.

観光で来た。[Kankou de kita.] Sayohat uchun keldim.

⑧ [様態] - gapdagi kesim ifodalayotgan harakatning qay tarzda bajarilishini ko'rsatishdagi vazifasi.

はだして歩いた。[Hadashi de aruita.] Oyoqyalang yurdim.

Xulosa sifatida yapon tili lingvistik strukturasidagi kokugogaku hamda nihongogaku tizimining farqlari va ularning kelib chiqish tarixi bilan bog'liq faktlar, aynan bu ikki tizimdagi grammatik tafovutlar, bu ikki tizimning yapon tilini chet tili sifatida o'zlashtiradiganlar uchun va ushbu til kesimida Yaponiyada hamda Yaponiyadan tashqarida ilmiy ishlar olib boradiganlar e'tibor talab qiladigan nuqtalar haqida ma'lumotlar taqdim qilishga harakat qilindi. Ushbu ma'lumotlar negizida aynan kelishik kategoriyasini ham bu ikki tizimda tavsiflab o'tib ularning ma'no sathidagi vazifalarini ham tahlil qilishga harakat qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni, hujjatlar to'plami, 2017-y., 6-son

2. Алпатов В.М. Япония. Язык и общество, М., 1988.

3. Конрад Н.И. «Сердце» русской перевод. – Ленинград., 1935.

4. Киеда М. Грамматика японского языка. -М.: Едиториал УРСС, 2004.

5. 「こころ」 夏目漱石, 「こころ」 1914.

6. みんなの日本語 II. Tarjima va grammatik tahlil Toshkent: 2007.

7. Aminova N. "Qalb" asari bevosita tarjimasi. "Jahon adabiyoti" may-iyul soni. 2013-yil.

8. Sherov. S.X. Yaponcha-o'zbekcha-ruscha lug'at. T. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti. 2004. 250 b.

9. Sirojiddinov Sh. S., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. T. 2011. 140 b.

10. Kholikov, B. (2020). PATRIOTIC EDUCATION IN THE LITERARY PICTURE OF THE WORLD (ON EXAMPLE DETECTIVE NOVELS). In МИССИЯ КОНФЕРЕНЦИИ «ФЕНОМЕН ПАТРИОТИЗМА В ТРАНССТРУКТУРНОМ КОММУНИКАЦИОННОМ ПОЛЕ» (p. 157).

11. <https://fayllar.org/>

12. <http://www.uzbekistan.org/news/archive/>

13. <http://www.phrases.org.uk/meanings/proverbs.html>

14. 日本語教育の「格助詞」 | 日本語教師のまる得 (blognihongo.com)

15. <https://japanese-language-education.com/wokaku/>